

Tarmoq ilmiy-texnik kengashi murakkab mineral o'g'it mahsulotlarini mahalliyashtirishga qaratilgan loyihani ko'rib chiqdi

// 08 July 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/tarmoq-ilmiy-texnik-kengashi-murakkab-mineral-o-g-it-mahsulot>



Sanoatda mahsulotlarning mahalliyashtirilishi mahalliy ishlab chiqarishni kuchaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlaydi, ish o'rinlari yaratiladi. Qolaversa, importga bog'liqlik kamayadi, transport va bojxona xarajatlari pasayadi.

Shu ma'noda "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq ilmiy-texnik kengashi o'z faoliyati davomida kimyoviy mahsulotlarni mahalliyashtirish kabi loyihalarga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha vertikal integratsiyalashgan klasterlarni yaratish loyihasining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun texnik shartlari tayyorlandi.

Kengashning navbatdagi yig'ilishida ushbu loyiha keng muhokama qilindi. Loyihaning afzallik jihati shundaki, hozirgi kunda mamlakatimizga import qilinayotgan bir nechta murakkab mineral o'g'itlar mahalliyashtiriladi.

Bu esa o'z navbatida tashqi bozordagi o'zgarishlar ta'sirini kamaytirish va mahalliy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati